

PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK TADQIQOTLAR ASOSIDA TA'LIMDA YANGI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

Hayitmurodova Gulnur Zafarovna

gulinurhayitmurodova162@gmail.com

Ingliz filologiyasi fakulteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15210793>

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy ta'lim tizimida yangi texnologiyalarni qo'llashning dolzarbligi va ahamiyati, shuningdek, psixologik va pedagogik tadqiqotlarning ta'limda yangi texnologiyalarni foydalanishga ta'siri haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, o'quvchilarning texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan munosabati va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri, turli o'quv fanlarida texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchilarning texnologiyalarni qo'llashga tayyorligi va ularning malakasini oshirish kabi jihatlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, psixologiya, texnologiyalar, samaradorlik, o'quv jarayoni, natijalar, ta'lim, tadqiqot.

Kirish. Bugungi rivojlanib borayotgan zamonamizda har bir soha rivoji uchun, albatta, texnologiyalarning o'rni katta. Ayniqsa, ta'lim tizimini bugunga kelib ularsiz tasavvur qilish qiyin, ammo o'quvchilarning hammasi bunga psixologik tomondan tayyor, pedagoglarda esa zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonida ishlatishda yetarlicha tajriba, salohiyat va ko'nikmalar bor deb aytish to'g'ri deb bo'lmaydi. Ammo texnologiyalarni shunchaki sinfxonalarga olib kirib qo'yishning o'zi yetarli emas, albatta. Ularning taqdim etadigan imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun ham o'qituvchilar kuchli psixologik va pedagogik tadqiqotlar asosida texnologiyalarning o'quvchilar bilim olishi va rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tushunishlari kerak.

Asosiy qism. Innovativ va interaktiv texnologiyalar matematika va til kabi turli soha fanlariga o'quvchilar uchun faol o'quv muhitini yaratish orqali o'rgatish metodlarini butunlay o'zgartitib yubordi [1]. Biroq ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanishning o'quvchilarning idrok etish, xotira, diqqat, fikrlash, motivatsiya va boshqa psixologik xususiyatlariga aynan ijobiy yoki salbiy ta'siri yo'q deb aytoilmaymiz. Ayrim tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dars davomida an'anaviy usullardan emas, balki yangi texnologik vositalar orqali turli metodlardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirgan. Ikki sinf o'rtasida tadqiqot olib boriladi: birinchi sinfda hech qanday komyuter yoki ekranlasiz, ikkinchi sinfda esa elektron doska yordamida dars olib boriladi. Tadqiqot davomida shunisi aniq bo'ldiki, texnologiya vositasida o'rgatilgan mavzuni o'quvchilar hech bir qiyinchiliklarsiz tushunib oladi, darsdan so'ng hatto mayda detallarigacha savol berilganda ham ular bexato javob berishadi. Hech qanday texnologiyalarsiz, an'anaviy tarzda o'tilgan xuddi shu mavzu esa narigi sinf o'quvchilari tomonidan juda zerikarli kutib olinib, dars jarayoida uxlash, esnash, bee'tiborlik holatlari kuzatiladi, dars oxirida savol so'ralganda atigi bitta o'quvchi javob beradi. Demak, yangi texnologik qurilmalar o'quvchilarning nafaqat fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki dars jarayonlarida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Chunki elektron vositalarda mavzuga doir tushunchalar rasm yoki video ko'rinishida namoyishi etilishi, qiyin atamalar ham turli jadvallar asosida qiziqarli tartibda qo'yilishi o'quvchining motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu narsa psixologiyada kuzatuv orqali o'rganish (observational learning) deyiladi [2]. Shuningdek, tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, talabalar faol ishtirok etganlarida va tushunchalarni o'zlarini o'rab turgan haqiqiy hayot bilan bog'lashsa yaxshiroq o'rganadi. Shu sababli, elektron ta'limni (e-learning) o'z ichiga

olgan laboratoriya yoki eksperimental muhit talabalarga samarali o'rganishga yordam beradi [3]. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bir qancha elektron ta'lim metodlari o'rganilgan va tadqiqotchlar tomonidan texnologiyalar asosida o'rganish an'anaviy ta'limdan ko'ra foydaliroq degan xulosaga kelingan. Misol uchun, dars bilan bog'liq animatsion multfilmlar ko'rsatish ularning ilmiy mushohada yuritish ko'nikmasini shakllaniradi [4], elektron portfolio esa yozuv samaradorligini oshirishga yordam beradi [5].

Shu bilan birga texnologiyalarning o'ziga xos salbiy tomonlari mavjud. Birinchidan, haddan ortiq foydalanish ularga bo'lgan qaramlikni yuzaga keltiradi; dars jarayonlardan tasharida ham undan foydalanishga bo'lgan moyillik ortib boraveradi, bu nafaqat oquvchilarning ko'rish qobiliyati, balki miya faoliyatiga, ta'lim samaradorligiga ham zararlidir. Bir so'z bilan aytganda, texnologiya foydali vosita bo'lish bilan birga chalg'ituvchi omilga ham aylanishi mumkin. Bu muammoning yechimi pedagogik mahoratni talab etadi, ya'ni o'qituvchi qay tarzda, qancha vaqt undan foydalanishni bilsa, o'quvchi unga o'rganib qolmaydi, me'yor barcha narsada muhimdir. Shuningdek, texnologiyaga tushunmaydigan va natijada undan foydalana olmaydigan o'quvchilar ham bor, ularga yordam berish, o'zlarini noqulay his etmasliklariga imkon yaratib berish pedagogning vazifalaridan biridir.

Turli o'quv fanlarida texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos tomonlari bor. Umuman olganda, pedagoglar o'quvchilarning psixogik holatlarini, texnologiyalarning ularga ko'rsatayotgan ta'sirini inobatga olgan holda ulardan foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Biologiya, fizika, kimyo kabi amaliy tajribalarni talab etadigan fanlarda zamonaviy texnologik qurilmalardan foydalanish, o'z navabtda, ularning amaliy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Til o'rgatishda ham texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi, pedagoglarning ishini ancha osonlashtiradi. Lekin bugungi kunda barcha ta'lim muassasalari ham yetarlicha texnologik qurilmalar bilan jihozlanmagan va bu narsa o'quvchilar dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Ta'limdagi eng dolzarb muammolardan biri ham aslida tizimning amaliy bilimlarni emas, balki nazariy bilimlarni keng qamrab olganidadir. Ba'zi o'qituvchilarning yangi texnologiyalar asosida dars o'tishga tajibalari yetmasligi mumkin, ammo ular uchun turli pedagogik kurslarni yaratish ta'lim jarayonida texnologiyalardan samarali foydalanishlariga, o'z mahoratlarini ular orqali yanada professional namoyish etish imkoniyatini beradi.

Xulosa. Ta'lim har bir davlat rivojida eng muhim rol o'ynaydigan sohalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun u bilan bog'liq har qanday muammoni bartaraf etish jamiyati ravnaqi yo'lida tashlangan eng katta qadamdir; zamonaviy texnologiyalardan o'quv mashg'ulotlarida samarali foydalanish, foydalanishga o'rgatish bugungi kunning ulkan vazifalaridan biridir, albatta, bunda o'quvchilarning psixologik holatlari va o'qituvchilarning pedagogik mahoratlari inobatga olinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Hwang, G. J., Chang, H. F. A formative assessment-based mobile learning approach to improving the learning attitudes and achievements of students, 2011
2. Albert Bandura. Social learning theory, Stanford University, 1971
3. Tashkm, N., Kendemir B. The affect of computer supported simulation applications on the academic achievements and attainments of the seventh grade students on teaching of science, 2010

4. Dalacosta, K.; KamariotakiPaparrigopoulou, M.; Palyvos, J.A. and Spyrellis, N. Multimedia application with animated cartoons for teaching science in elementary education, 2009
5. Nicolaidou, I. E-portfolios supporting primary students' writing performance and peer feedback, 2013.